



MUHIM TASHABBUSLAR

Ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida ona O'zbekistonimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish, bunyodkor kelajak va ezgu maqsadlar poydevorini qurish kabi ulkan vazifalar yotadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor **Ibrohim Yuldashev** 2019 yilning 15 oktabr kuni Jizzax viloyati G'allaorol tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 12-umumta'lim maktabi o'qituvchilariga **"Rektorlik soati"** va 63-umumta'lim maktabining 6-sinf hamda 9-sinf o'quvchilariga **"Mahorat darsi"** tashkil qildi. Unda o'zbek adabiyoti va san'ati borasida ijodiy suhbat bo'lib o'tdi. Eng asosiysi, bolalarda kitobxonlikka bo'lgan e'tiborni oshirish, badiiy tafakkurni boyitish, innovatsion g'oyalarga mos ravishda aqliy qobiliyatlarini, estetik madaniyatni shakllantirish yuzasidan fikrlar o'rtaga tashlandi.





Shuningdek, rektor Ibrohim Yuldashev maktab o'quvchilari kelgusida oliy ta'lim muassasalarida o'qishlari, ilm va ijod yo'lini tanlashda amaliy bosqichlarga tayyorgarlik, bugungi kunda muhtaram yurtboshimiz amalga oshirayotgan muhim islohotlarga yoshligidanoq jiddiy yondashish masalalariga e'tibor qaratdilar. Oldinda mazkur suhbatlar tadriji davom etajak.



Dostonbek RAHMATULLAYEV
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti matbuot kotibi